

ONLAYN O'QUV KURSLARINI YARATISHGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Qayumova Yulduz Toxirjonovna

Jizzax shahar kasb – hunar maktabi kafedra mudiri

Karomatov Navro'z Xamzayevich

Jizzax shahar kasb – hunar maktabi maxsus fan o'qituvchisi

Salayeva Dilnoza Mirzaqulovna

Jizzax shahar kasb – hunar maktabi Informatika va AT fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirish, uni jahon andazalarimdarajasiga ko'tarish, fan sohasidagi yangiliklarni amaliy hayotga tatbiq etish muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, ularda fan asoslariga nisbatan bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi.*


Kalit so'zlar: *Onlayn o'quv kurs, motivatsiya, boshqarish tizimi, an'anaviy kurslar, interfaol kurslar, ijtimoiy kurslar*

Onlayn o'quv kursning o'ziga xos xususiyati shundaki, bunda o'quvchilarga zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida ishlab chiqilgan axborot resurslaridan foydalangan holda zarur bilimlarni mustaqil ravishda olish imkoniyati beriladi. Axborot manbalari: ma'lumotlar va bilimlar bazalari, kompyuter, shu jumladan multimediya, o'quv va monitoring tizimlari, video va audio yozuvlar, raqamli kutubxonalar - an'anaviy darsliklar va o'quv qo'llanmalari bilan birgalikda keng omma uchun ochiq bo'lgan juda qulay o'quv muhitini yaratadi.

Video va televizion ma'ruzalar, davra suhbatlari, kompyuter videofayllari va konferensiyalarni o'tkazish, o'qituvchilar bilan kompyuter aloqalarida tez-tez, hatto har kuni maslahatlashish imkoniyati o'quvchilarning o'qituvchilar bilan o'zaro munosabatlarini an'anaviy o'qitish uslubiga qaraganda ancha yaxshi kuchaytiradi.

Talabalar va tyutor(maslahatchi o'qituvchi)lar o'rtasida intensiv telekommunikatsion aloqalar elektron seminarlar va biznes o'yinlarini o'tkazishga imkon beradi.

To'liq rivojlangan onlayn o'quv loyihasi quyidagilardan iborat bo'lishi kerak: o'qitish bloki, axborot bloki (axborot bilan to'ldirish tizimi), boshqaruv bloki (sinov va baholash mexanizmi), aloqa bloki (interfaol o'qitish tizimi) va ularning barchasini birlashtirgan boshqaruv tizimi.



Onlayn o'quv kurs - bu nafaqat dars matni, balki yaxlit jarayon, shu jumladan tarmoqlarda kerakli ma'lumotlarni qidirish, kurs murabbiylari va boshqa talabalar bilan

ma'lumot almashish, ma'lumotlar bazalariga, Internet orqali nashr etiladigan davriy nashrlarga kirish kabi imkoniyatlarni o'zida mujassamlashtirgan tizimdir.

Masofaviy ta'limning har qanday turining samaradorligi to'rt komponentga bog'liq:

- fizik joylashuvi alohida bo'lishiga qaramay, o'qituvchi va talabaning samarali o'zaro aloqasi;
- buning uchun foydalaniladigan pedagogik texnologiyalar;
- ishlab chiqilgan o'quv materiallari va ularni yetkazib berish usullarining samaradorligi;
- teskari aloqa (obratnaya svyaz) ning samaradorligi.

Boshqacha aytganda, masofadan o'qitishning samaradorligi ishlatiladigan materiallar (o'quv kurslari) sifatiga va ushbu jarayonga jalb qilingan o'qituvchilarning mahoratiga bog'liq. Shuning uchun masofaviy o'qitishning pedagogik, mazmunli tashkil etilishi (kursni loyihalashtirish bosqichida ham, undan foydalanish jarayonida ham) ustuvor hisoblanadi. Shu sababli zamonaviy masofaviy o'qitish kursini tashkil etish zarur bo'lgan konseptual pedagogik qoidalarning ahamiyati katta. Ularni quyidagicha ifodalash mumkin:

1. O'quv jarayonining markazida o'quvchining mustaqil o'rganish faoliyati (o'rganish, o'qitish emas) turishi kerak.

2. O'quvchining turli xil manbalardan foydalangan holda mustaqil ravishda bilim olishga o'rganishi muhimdir; U ushbu ma'lumotlar bilan o'rganish faoliyatning turli usullaridan foydalangan holda ishlashga qodir va shu bilan birga o'ziga qulay bo'lgan vaqtda ishlash imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

3. Mustaqil ravishda bilimlarni egallash passiv bo'lmazligi kerak, aksincha, talaba boshidanoq faol bilim faoliyati bilan shug'ullanishi, bilimlarni o'zlashtirish bilan cheklanib qolmasligi, balki ularni atrofda voqelikning turli muammolarini hal qilish uchun qo'llashi ham kerak.

4. Tarmoqdagi talabalarning mustaqil (individual yoki guruh bo'lib) faoliyatini tashkil etish har bir o'quvchining ichki zaxiralarini ochishni rag'batlantiruvchi va shu bilan birga shaxsning ijtimoiy fazilatlarini shakllantirishga hissa qo'shadigan, ushbu o'qitish shaklining o'ziga xos xususiyatlariga mos keladigan, eng yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bu borada eng muvaffaqiyatli usullar: hamkorlikda o'qitish (tarmoqlarda har bir talabaning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun), loyiha usuli (olingan bilimlarni ijodiy integratsiyalashgan holda qo'llash uchun), tadqiqotlar, muammoli usullardir.

5. Onlayn o'quv kursda o'qituvchi - kurs koordinatori va boshqa hamkorlar bilan bilim olish va ijodiy faoliyat jarayonida faol hamkorlikni ta'minlaydi. Ijtimoiylashtirish muammolari Onlayn o'quv kurs uchun juda dolzarbdir.

6. Boshqarish tizimi tizimli xarakterda va tezkor aloqa (o'quv materiallarida ko'zda tutilgan, talaba uchun qulay bo'lgan vaqtda kurs o'qituvchisiga yoki maslahatchisiga tezkor murojaat qilish imkoniyati), avtomatik boshqarish (sinov tizimlari orqali) va kechiktirilgan boshqarish (masalan, shaxsni tekshirish paytida) asosida tuzilishi kerak.

Onlayn o'quv kurs yaratishda quyidagi talablarni hisobga olish kerak:

Motivatsiya. Motivatsiya - bu butun o'quv jarayoni davomida saqlanishi kerak bo'lgan ta'limning zaruriy qismidir. Talaba uchun aniq belgilangan maqsad katta ahamiyatga ega.

Belgilangan vazifalar darajasi talabaning tayyorgarlik darajasiga mos kelmasa, motivatsiya tezda kamayadi.

Ta'lim maqsadini belgilash. Kompyuterda ishlashni boshlagan talaba undan nima talab qilinishini bilishi kerak. O'quv maqsadlari dasturda aniq va tushunarli ko'rsatilishi kerak.

O'quv materialini idrok etish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish. O'quv materialini idrok etish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish uchun tayyor paketlar to'plamiga kiritilgan yoki o'qituvchining o'zi tomonidan tayyorlangan yordamchi materiallar (talabalar uchun qo'llanmalar) foydali bo'lishi mumkin. Boshlang'ich nazoratdan o'tish ham yordam berishi mumkin.

O'quv materialini taqdim etish. Materialni taqdim etish strategiyasi darsning maqsad va vazifalariga qarab belgilanadi. Bu yerda eng muhimi displey ekraniga beriladigan tasvirlar dizaynidir. Bunda shu paytgacha ma'lum bo'lgan, o'qish uchun eng qulay printsiplardan foydalanish kerak.

Murojaat qilish imkoniyati. Ushbu mezon talaba uchun asosiy ahamiyatga ega, bu imkoniyatni test dasturida kamroq, trenajyorlarda ko'proq qilish maqsadga muvofiq. Bugungu kunda zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyati bu ishni qilishga qodir.

Baho. Kompyuter bilan ishlash jarayonida talabalar o'quv materiallarini qanday o'zlashtirishlarini bilishlari kerak. Shu bilan birga, sinov to'liq yakunlanmaganicha noto'g'ri javoblar sonini ko'rsatmaslik maqsadga muvofiqdir. Chunki ko'pgina talabalarni bajarilmagan vazifalarning kamligi bajarilgan vazifalarning ko'pligidan ko'ra yaxshiroq rag'batlantiradi. Onlayn o'quv kursda eng muhim narsa "talaba - o'qituvchi - talabalar" aloqalarini tashkil etishdir. Ushbu maqsadlar uchun talabalarga loyihalarda qatnashish, hamkorlikda o'qish, munozaralarda qatnashish tavsiya etiladi.

Ta'limda Internetning boshqa xizmatlaridan ham foydalanish imkoniyatlari bor. Elektron pochta, Internet konferensiyalari va o'quv forumlari o'quv materiallarini muhokama qilish va talabalarning o'zaro hamkorligi uchun juda yaxshi vositalardir. Ammo amaliyot shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilar nazoratsiz bu vositalar gap sotish uchun ishlatiladi yoki umuman ishlatilmaydi. Ko'plab Amerika universitetlarining o'qituvchilari Internet aloqasini sodda, ammo samarali tarzda "jonlantiradilar": ular kurs boshlanishidan oldin talabalarga kursning umumiy bahosining 10-20% ni muhokamalarda faol qatnashish orqali olishlari mumkinligini e'lon qiladilar. Boshlanishiga o'qituvchi o'zining savollarini taklif qiladi va muhokama jarayonida talabalarga o'z mavzularini ochishlariga ham qarshilik qilmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Abduqodirov, A.X.Pardayev "Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti" Toshkent. Fan 2009 yil.
2. R.Hamdorov, N.Taylaqov va boshqalar "Elektron universitet. Elektron vazirlik. Masofaviy ta'lim texnologiyalari" 3-qism. Toshkent 2011 yil.
3. R.R.Boqiyev, X.To'xtamatov "Masofaviy ta'limda o'qitish vositalari va texnologiyalari" Metodik tavsiyanoma. Toshkent 2012 yil.

4. A.Abduqodirov “Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘qituvchilarining malakasini oshirishda masofali o‘qitish metodikasi”. Uzluksiz ta’lim. Toshkent 2004 yil.
5. A.Abduqodirov “Ta’lim tizimida masofali o‘qitish texnologiyasi”. Toshkent 2005 yil. 2-qism.
6. Q. Abdurahmonov “Raqamli iqtisodiyot: Janubiy Koreya tajribasi va undan O‘zbekistonda foydalanish istiqbollari”. Biznes daily. 30.04.2018 | Son: №4(124)-2018
7. Sh. Shadmanov “O‘zbekistonda masofadan o‘qitishning innovatsion texnologiyalari”. Uzinfocom jurnali. Toshkent 2018 yil.